

MATEMATIKA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIMNI O'QITISH  
TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

*Miraxmedov Mirjalol Mirali o'g'li*  
*Namangan viloyat To'raqo'rg'on tumani*  
*6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*Matematika fani o'qituvchisi*  
*Telefon: +998999739429*  
[mirjalol19901607@gmail.com](mailto:mirjalol19901607@gmail.com)

*“Maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir” - Mahmudxo'ja*  
*Behbudiy*

**Annotatsiya**

Mustaqil respublikamiz milliy, ijtimoiy–iqtisodiy va ma'naviy yuksalishining tub manbai maktabdan bashlanadi. Yurtimizning ulug' matafakkirlari inson kamoloti va davlat mavqei ilm–fanda deb biladilar.

**Kalit so'z:** Matematika, didaktik o'yinlar, psixologiya

O'zbekiston Respublikasining “**Ta'lim to'g'risida**”gi qonuni oila, jamiyat, davlat oldidagi ma'suliyatni anglab yetadigan har tomonlama yetuk shaxsni shakllantiruvchi intellektual va ilmiy kuchlarni taraqqiy ettirishdek yuksak maqsadlarni belgilab berdi.

“Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharafli vazifa turgan bir paytda ma'naviy qadriyatlarni ahamiyati ming karra ortadi. Nega deganda har qanday ulug' maqsadlarga yetish, yangi jamiyat, farovon turmush gurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish avvalo shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, barkamol avlodga bog'liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o'ylab, qattiq bel bog'lab mehnat qilayotgan bir davrda yashash yanada teran ma'no kasb etadi”, deb bejizga aytilmagan. Bu fikrlardan to'g'ri xulosa chiqarisni lozim bo'lgan biz xalq maorifi xodimlari komil va yetuk insonlarni tarbiyalashga bor bilimimiz va kuch g'ayratimiz bilan kirishishimiz kerak.

Ta'lim to'g'risidagi qonunni bajarish uchun o'qituvchilar qator vazifalarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Bugungi kunda matematika fani o'qituvchilaridan ham **Davlat ta'lim standarti** talablari asosida ilg'or pedagogik texnologiya va zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish talab yetiladi. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib, noan'anaviy usullarda tashkil yetish o'quvchilarni shu fanga qiziqishlarini yanada oshiradi. Bunday darslarni tashkil etishning yana bir ahamiyatli jihati shundaki o'quvchilar darsda

tinglovchi bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirok etuvchi bo'ladilar. Ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini ta'sirchanligini oshiradi. Men matematika darslarida ko'proq muammoli ta'limni joriy etilishini ma'qul deb bilaman, chunki muammoli ta'lim, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. O'quvchilarda bilimga qiziqish va ehtiyojni oshiradi. Bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Har bir o'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, dars o'quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Bugungi kunning asosiy talabi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, erkin so'zlashga, muammolarni mustaqil hal qilishga, ijod qilishga, hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamfikrlilik muhitini yaratishga qaratilganidir.

Pedagogik jarayonda do'stona muhitni yaratish omillaridan biri muammoli ta'limdir. Ushbu darslarda quyidagi faoliyatlar o'g'a suriladi:

-muammo har doim o'quvchining ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishini orttiradi;

-darsda muammoni hal qilish davomida o'quvchining muloqotga kirishishi kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;

-o'quvchining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimini va o'zligini namoyon etishga imkon yaratadi;

-o'quvchilar ortasida ijodiy muhit tarkib topadi, muammoni hal etishda ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo'ladilar;

-muammoni hal qilish mobaynida musobaqa, raqobat vujudga keladi;

-mavzuga doir bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanadi.

Muammoli ta'limda darslar orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

Ta'lim-tarbiya berish.

Shaxsni rivojlantirish.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish.

Bilimlarni nazorat va tahlil qilish.

Boshqa fanlar bilan o'zaro muloqotni amalga oshirish.

Erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tanlagan kasblariga yo'naltirish.

O'quvchilarni muloqot va nutq madaniyatini oshirish.

O'zaro do'stona muhitni yaratish.

Muammoli ta'lim darslarda o'quvchilarning bilim olishida quyidagi talablarga amal qilishi kerak:

muammoli ta'lim darsdagi mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;

amaliyotdagi muhim muammolarga bog'lanib ular dars davomida hal qilinishi yoki uyga vazifa qilib mustaqil ish sifatida berilishi mumkin;

barkamol avlodni tarbiyalash tamoyillari sharqona axloq-odob qoidalariga mos kelishi;

muammoda mantiqiy ketma-ketlik bo'lishi;

ta'lim prinsiplariga amal qilinishi va kam vaqt sarflanishi kerak.

Muammoli ta'limning qiyidagi turlarini keltirish mumkin;

1. Mavzuga doir muammo.
2. Misol va masala yechishdagi muammo.
3. Geometrik yasashga doir muammo.
4. Isbotlashga doir muammo.
5. Tarixiy masalalarni o'rganishda paydo bo'ladigan muammo.

Mustaqil O'zbekistonning ravniqini chuqur va asosli bilimga ega bo'lgan, ilmiy tafakkuri o'sgan, tadbirkor va ishbilarmon yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. DTS talablari.
2. 8-sinf "Geometriya" darsligi.
3. Abu Rayhon Beruniy, "Astronomiya san'atidan bo'shlang'ich ma'lumot beruvchi kitob"